

**DUKKAKLI EKINLAR PARVARISHLASHNING TEXNOLOGIYASI****Gaybullayeva Madina***katta o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti,  
O'zbekiston, Farg'ona sh.*

**Annotatsiya:** maqolada dukkakli ekinlar parvarishlashning texnologiyasi tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** tabiat, dukkakli ekin, qishloq xo'jaligi, tuproq.

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan, sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Shu boisdan qishloq xo'jaligida yangi islohatlarga yo'l ochib berilmoqda. Aholini oqsilga bo'lgan talabini qondirishda don dukkakli ekinlarni roli kattadir.

Dukkakli ekinlar tuproqni boyitish manbai bo'lib, ko'plari o'z ildizlarida tuganak azot to'plovchi bakteriyalarni ushlab turadi, ular havo tarkibini 78% tashkil etgan erkin N<sub>2</sub> ni qabul qilish xususiyatiga ega. Shu boisdan mosh, loviya, no'xat, soya va boshqa dukkakli ekinlar bizning sharoitimizda tuproqni boyituvchi ekinlar hisoblanadi. Ular bedadan so'ng muhim boyituvchi va almashlab ekishda joylashtirishda qatnashuvchi shart qilib quyilishi lozim bo'lgan ekinlardir.

Hozirgi vaqtda bedapoyalar salmog'i respublikamizda 1-5% maydonni egallayotgan bo'lsa, dukkakli ekinlar salmog'i 1%. Bu salbiy ahvolni bartaraf etmoq zarur, chunki tuproq tarkibidagi chirindi miqdori g'oyatda kamayib bormoqda. Ayniqsa oziq – ovqat tarkibidagi oqsil iste'moli past bo'lgan O'zbekistonda oqsilga boy bo'lgan ekinlarni ko'proq ekishimiz kerak, go'sht tarkibidagi 16 – 21 % oqsil dukkakli ekinlarni donida undan ko'proqdir. Masalan, moshda 26%, loviyada 20%, no'xatda 20,4%, soyada 40% oqsil bor. Agar beda pichanini olsak, 16-21% yoki go'sht bilan baravar, bug'doyda esa 12-13% arpada 11,6% sulida 9% makka donida 10,0% oqsil bor. Bundan tashqari dukkakli ekinlarni donida ko'p miqdorda vitaminlar va mikroelementlar bor, bular esa inson organizmi hamda hayvon ratsionida muhim fiziologik rol o'ynaydi.

**DUKKAKLI O'SIMLIKLARNI KIMYOVIIY TARKIBI**

Dukkakli ekinlar o'z tarkibida oqsilni eng ko'p ushlaydi, boshqa don ekinlaridan ikkinchi farqi oqsil tarkibida lizin, triptofan, metionin, valin va boshqalar ko'pdir. Kimyoviy tarkibini ko'zdan kechiradigan bo'lsak quyidagilarni ko'ramiz. (1-jadval)

1-jadval

**DUKKAKLI EKINLARDA URUG'IDAGI OQSILNI MIQDORI**

Ekinlar nomi	Oqsil	Protein	Kletchat ka	Qand kul
No'xat	24	50	1,2	6,0
Loviya	23	55	1,8	6,0
Soya	39	3	20,0	5,0
Lyupin	38	3	5,0	16,0

Demak, bu ekinlarni tarkibida inson va hayvonot organizmi uchun eng zarur bo'lgan moddalar ko'p ekan, shuningdek, vitaminlar ham A, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, C, D, E, K, PP ko'plab uchraydi.

Bundan tashqari bu ekinlarni poya va barg qismida ham hayvonlar uchun zaruriy moddalar juda ko'pdir, masalan, 1 s mahsulotda kilogram hisobidagi ozuqa birligini oladigan bo'lsak, quyidagicha bo'lar ekan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Nazarov M., Mirzajonov K., Ibragimov O., Isayev S. “Dexqonchilikning tejamkor texnologiyalari”. 115 -bet. o'quv-uslubiy qo'llanma 2014 y.

3. Gaybullaeva M. F. The Role Of Biomass In Saving Natural Resources //The American Journal of Horticulture and Floriculture Research. – 2021. – T. 3. – №. 02. – C. 1-6.

4. Nazarov M., Gaybullaeva M. “The importance of using legumes today” ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal

5. Gaibullaeva M. “Methods of influence of soil powing on growth, plant development and accumulation of clubberry bacteria” EPRA International Journal of Research & Development (IJRD) oktyabr -2020. Pages 445-447

6. Gaybullaeva M., Makhsudova G., Akramov A. “Technology of grain-leguminous plant care in the hungry bush soils of Fergana region” EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. 616 бет.

7. Гайбуллаева М. “Адирли тупроқларда нўхотнинг тупроқ унумдорлиги ва азот тўпловчи бактерияларга таъсири” O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi. № 8. 2021 йил. 34 бет.

9. Назаров М., Гайбуллаева М. “Дон дуккакли ўсимликларда фотосинтез жараёнларига экологик омиллар таъсири” № 2. Агро илм журнали. 30 бет